

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOBOMURODOV SIROJIDDIN MENGZIYO O‘G‘LI**

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUV JARAYONIDA ILK INVARIANT VA  
VARIATIV TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI  
(ona tili misolida)**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili) (pedagogika fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi****Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)****Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)****Bobomurodov Sirojiddin Mengziyo o'g'li**

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasi (ona tili misolida)..... 5

**Бобомуродов Сирожиддин Менгзиё угли**

Методика формирования ранних инвариантных и вариативных понятий в процессе обучения в начальных классах (на примере родного языка)..... 25

**Bobomurodov Sirojiddin Mengziyo o'g'li**

Methodology for formation of first invariant and variable concepts in primary class education process (in the case of mother tongue)..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOBOMURODOV SIROJIDDIN MENGZIYO O'G'LI**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUV JARAYONIDA ILK INVARIANT VA  
VARIATIV TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI  
(ona tili misolida)**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ona tili) (pedagogika fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped4094 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.terspi.uz](http://www.terspi.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Norbo‘tayevo Xo‘shboq Bobonazarovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Oripova Nodima Xalilovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/30.07.2024.Ped.180.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “26”-avgust kuni soat 10:00 da 8/1-sonli majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 190111, Termiz tumani. “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1A-uy. Tel: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№4-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz tumani. “Yangiobod” MFY At-Termiziy ko‘chasi, 1A-uy. Tel: (376) 221-93-56; faks: (376) 221-93-56, e-mail: terdpi@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.A.Kuldashaeva**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**M.K.Ismailov**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

**M.X.Shomirzayev**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d. (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim jarayonida o'quvchilarni individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, shuningdek, ularning iqtidori va qobiliyatini shakllantirishda uzluksiz ta'limning asosiy bog'ini hisoblangan kichik maktab yoshi davri muhim hisoblanib, bu esa o'quvchilarda fan asoslariga oid invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish<sup>1</sup>ni taqozo etadi. Ayniqsa, o'quvchilarning atrof-muhit bilan o'zaro a'loqasini tashkil etish natijasida ijtimoiy, huquqiy hamda intellektual taraqqiyotini ta'minlash, qadriyatli yondashuv asosida variativ tushunchalarni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Dunyoning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida variativ tushunchalarni shakllantirishga doir bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning individualligi, qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yondashuvlarni amalga oshirish hamda shaxslararo ijtimoiy muloqot me'yorlarini o'zlashtirganliklarini baholash sohasiga oid keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, o'quvchilarda ona tiliga nisbatan aniq nuqtai nazarni shakllantirish, inson faoliyati bilan bevosita va bilvosita bog'liqligini o'rgatish maqsadida variativ tushunchalar o'quv jarayoniga keng targ'ib qilinmoqda.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash maqsadida "ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy va xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish"<sup>2</sup> sohalarda tarkibiy islohotlar yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori asosida mamlakatimiz umumta'lim maktablarida mavjud fanlar, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar doirasida o'quv fanlarni umumlashtirilishi o'quvchilarda o'zini o'zi boshqarish, murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o'tish ko'nikmalarini jadallashtirishni taqozo etadi. Shu asnda boshlang'ich maktab o'quv jarayonida invariant va variativ tushunchalarni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5313-son farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar

---

<sup>1</sup> The future of education and skills Education 2030. This work is published under the responsibility of the Secretary-General of the OECD. - 2015. - p.23

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847- son farmoni. 2019 yil 9-oktabr.

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ta’lim jarayonida o‘qitish va uni takomillashtirish masalalari bo‘yicha Yu.Asadov, R.Ahliddinov, R.Mavlonova, B.Ma‘murov, S.Jo‘rayeva, G.Najmiddinova, N.Oripova, R.Safarova, Sh.Sharipov, shuningdek, ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha N.Adizova, A.Bobomurodova, X.Muhiddinova, H.Mirzohidova, Q.Shodiyeva, N.Alavuddinova, N.Yuldasheva, M.Saidov, Sh.Yusupova, N.Qosimova va A.G‘ulomovlar o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ona tilini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish va qiyoslab o‘rganish ustida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.G.Arushanova, L.V.Popov, Ye.A.Bogdanova, S.D.Deryabo, A.V.Leontov, I.M.Yakovlyeva, V.A.Krutetskiy, V.V.Latyushin, V.V.Pechenkov, Sh.A.Amonashvili, N.V.Kuzmina, A.I.Voskresenskaya, K.Xolmovskayalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida asosan ta’limda o‘qitish masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Ta’lim jarayoni va uning ijtimoiy muammolari bilan J.Delorf, R.Gott, R.Roberts, G.Capano, B.Хытмаев, D.Hames, S.Blanchard, A.Blackman, Karl Rogers, Jerome Freyberglarning ilmiy tadqiqot ishlarida muhim o‘rin tutadi.

Biroq, mazkur ilmiy-tadqiqot ishlari asosan ta’lim jarayonida ona tili o‘qitishni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Ammo boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonida, ya’ni ona tilini o‘qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish muammosi yetarlicha o‘z aksini topmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari re‘jalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining ijrosini ta’minlashda ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini innovatsion rivojlantirishning takomillashgan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muammolari” amaliy loyihasi (2021-2024-yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish jarayoni hamda mazmunini tahlil qilish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning didaktik modelini takomillashtirish;

boshlang‘ich sinf ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish;

darsdan tashqari mashg‘ulotlarda invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Surxondaryo, Buxoro va Sirdaryo viloyatlari umumta’lim maktablarining

2-4-sinflaridan jami 411 nafar o'quvchi ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** boshlang'ich sinf ona tili darslarida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda anketa, suhbat, savol-javob, tizimlilik, qiyosiy tahlil, test so'rovlari, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ona tili darslarida o'quv elementlarining taksonomik ketma-ketligini ta'minlash orqali o'quvchilarda invariant (o'zgarmas) va variativ (o'zgaruvchan) tushunchalarni shakllantirishning interiorizatsiya (tushunchaning ichki qabul qilinishi), eksteriorizatsiya (tashqi namoyon bo'lishi) va reflektiv-baholash kabi xususiyatlari aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik model mazmuni shaxsiy ta'lim dasturida o'quvchining o'qish maqsadlari va faoliyat turlarini belgilash hamda metodik tamoyillarni faol ta'lim strategiyalari bilan uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarda variativ tushunchalarni shakllantirishning metodik tizimi "Ona tili" darslarida variatsion mazmunga ega metodlarni qo'llash, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini baholash mezonlari bilan diagnostika qilish imkonini beruvchi didaktik muhitni yaratish orqali takomillashtirilgan;

darsdan tashqari mashg'ulotlarning intellektual-ijodiy va korreksion-rivojlantiruvchi funksiyalarini oshirish asosida lokal-modulli texnologiyani takomillashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida variativ tushunchalarni shakllantirish samaradorligi aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining invariant va variativ tushunchalarni o'zlashtirish darajasini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilgan;

o'quvchilarda variativ tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan muammoli-izlanishli-kreativ topshiriqlar majmui ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini oshirishga doir ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

"Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish texnologiyasi", "Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda variativ tushunchalarni takomillashtirish metodikasi" nomli uslubiy qo'llanmalar chop etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari va ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, metodologik bazasining ta'minlanganligi, olingan emperik miqdorlarning matematik-statistik metodlari yordamida tahlil qilinganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi manbalardan foydalanilganligi, tajriba-sinov ishlarining tahlili va ularning natijalaridan olingan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar,

o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning didaktik xususiyatlari, mazmuni, shakl va metodlarini yaratish, motivasiyani hosil qilish, intellektual faoliyatni tashkil etish yo'llarining ishlab chiqilganligi, o'quvchilarda kreativlikni shakllantirishning intellektual hissiy-emotsional jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga doir didaktik modelning takomillashtirilganligi, aniq maqsadga yo'naltirilgan diagnostik, bilishga doir, tashkiliy va natijaviy-baholash kabi bosqichlardan iborat lokal-modulli texnologiyaning ishlab chiqilganligi, faoliyatni tashkil etishning shakl, metod va vositalaridan boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ona tili darslarida o'quv elementlarining taksonomik ketma-ketligini ta'minlash orqali o'quvchilarda invariant (o'zgarmas) va variativ (o'zgaruvchan) tushunchalarni shakllantirishning interiorizatsiya (tushunchaning ichki qabul qilinishi), eksteriorizatsiya (tashqi namoyon bo'lishi) va reflektiv-baholash kabi xususiyatlarini aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalar umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim Milliy o'quv dasturi va darsliklari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2024-yil 8-noyabr 01/11-1-933-son ma'lumotnomasi). Natijada, ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik model mazmuni shaxsiy ta'lim dasturida o'quvchining o'qish maqsadlari va faoliyat turlarini belgilash hamda metodik tamoyillarni faol ta'lim strategiyalari bilan uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2024 yillarda bajarilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" mavzusidagi fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialining 2025-yil 2-may № 203-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quv jarayonida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasi mazmunan boyitilgan;

o'quvchilarda variativ tushunchalarni shakllantirishning metodik tizimi "Ona tili" darslarida variatsion mazmunga ega metodlarni qo'llash, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini baholash mezonlari bilan diagnostika qilish imkonini beruvchi didaktik muhitni yaratish orqali takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalaridan Yevropa ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 2019-2022-yillarda bajarilgan 574099-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli PAWER- "Hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarflik, sifat hamda tenglikni ta'minlash" mavzusidagi xalqaro loyihasini bajarishda foydalanilgan (Termiz davlat universiteti

ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2025-yil 1-may 03/12-1788-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quv jarayonida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish davomida o'quv faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mantiqiy tuzilma takomillashtirilgan;

darsdan tashqari mashg'ulotlarning intellektual-ijodiy va korreksion-rivojlantiruvchi funksiyalarini oshirish asosida lokal-modulli texnologiyani takomillashtirish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida variativ tushunchalarni shakllantirish samaradorligini aniqlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy metodik tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialida 2021-2024-yillarda amalga oshirilgan XT-Φ2-011 "Qoraqalpog'iston tilini o'qitishni takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini kompleks tadqiq etish va konsepsiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyahasini bajarishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filialining 2025-yil 28-aprel № 202-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kompetensiyaviy yondashuv orqali invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish jarayoni o'quvchilarda ijodiy, intellektual xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan. 2 ta uslubiy qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, 4 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari re'jalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning mavjud holati; boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari; boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga qo'yiladigan didaktik talablar bayon qilingan.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda invariant va variativ didaktik tushunchalar alohida o'rganilib chiqiladi. Avvalo, variativlar - bir xil narsaning turli xil namoyishlari (o'zgartirish, amalga oshirish va xilma-xillik), shuningdek, variativ-bu bir xil obyektни o'ziga xos modifikatsiyasidan mavhum ravishda kiritish, variantlarda shakllangan va har bir variativga xos bo'lgan obyektlar sinfining umumiy xususiyatlarini aks ettirishdir. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk variativ tushunchalarni shakllantirish ta'limni formal o'qitishdan holi bo'lgan holda, o'quv mazmunini har xillashtirish va o'zgartirishga erishishni anglatadi.

Invariant didaktik funksiyalar variativ didaktik funksiyalar aksi bo'lib, invariant so'zi fransuzcha "invariant"- o'zgarimas degan ma'noni bildiradi. Ma'lum bir turdagi o'zgarishlar davrida o'zgarimas bo'lib qoladigan xususiyatga ega tushunchalar invariantdir. O'quvchilarda invariant tushunchalarni shakllantirishda ta'lim mazmunining bir xillilikka erishishi mumkin.

Invariant - bu til birliklarining barqaror, o'zgarimas shakli yoki semantik yadrosi bo'lib, u so'z, fonema, morfema, gap, ibora kabi elementlarning eng asosiy ko'rinishini bildiradi. Variativ esa o'sha birlikning kontekstga, funksiyaga, uslubga yoki hududga qarab o'zgaruvchi shakli sifatida namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda bu ikki tushuncha fonetik, morfologik, sintaktik, semantik, leksik, hamda dialektal qatlamlarda keng qamrovga ega. Masalan, "bor" fe'lining invariant shakli biror joyga harakatni ifodalaydi, uning variativ shakllari esa zamon, shaxs yoki uslubiy o'zgarishlarga qarab "bordim", "bormoqda", "boryapman", "boruvdim" kabi shakllarda yuzaga chiqadi.

Shuningdek, boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda didaktik talablardan tashqari tarbiyaviy, psixologik, gigiyenik talablar ham mavjud bo'lib, ular o'quvchilarni aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va tabiiy jarayonlar uyg'unligini ta'minlaydi. Ushbu yondoshuvda lingvistik-didaktik va kognitiv muvozanat asosida o'quv jarayonining moslashuvchan tuzilmasi ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ya'ni turli mashq, topshiriq va masala tushunchalari ham takomillashtiriladi. Unda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan, ayniqsa, fonetikani o'qitishda mustahkamlovchi o'quv materiallari hisoblangan mashq va topshiriq kategoriyalarini mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, didaktik jihatdan farqlash va variativ tushunchalarni ya'ni turli xil namoyishlar asosida takomillashtirish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ona tilini variativ tushunchalar asosida o'rganish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish uchun muhim materialni taqdim etadi. Bu, nafaqat atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, balki, boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk variativ tushunchalarni shakllantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiruvchi omillardan biri sifatida o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi.

Unda o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi va bu mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni o'quvchiga o'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlar, mustaqil fikrlash, mazkur jarayonda muhokama qilinayotgan muammoning mazmun va mohiyati tushuniladi. Ayniqsa, tilshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan variativ tushunchalarni

boshlang'ich sinf ona tili darslarida bosqichma-bosqich takomillashtirib borish o'quvchilarning fikrlash mexanizmlarini chuqurlashtiradi (1-jadval).


1-jadval

**Boshlang'ich sinf ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarning lingvistik tipologiyasi**

<b>Invariant kategoriyalar (o'zgarmas, barqaror til birliklari)</b>		
<b>Invariant tushunchalar</b>	<b>Mazmun</b>	<b>Izoh</b>
<b>Fonema</b>	So'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qiluvchi eng kichik tovush birligi.	/g/ va /k/ - "gul" va "kul" so'zlaridagi farq.
<b>Morfema</b>	Ma'no anglatuvchi eng kichik til birliklaridan biri.	"Uylar" so'zida "-lar" ko'plik morfemasi.
<b>Termin</b>	Maxsus fan yoki soha doirasida ishlatiladigan qat'iy, aniq ma'nodagi so'z.	"Morfologiya", "leksikologiya", "diskurs".
<b>Sintaksis</b>	So'z va gaplar orasidagi grammatik bog'lanishlar tizimi.	"U maktabga bordi" - to'g'ri sintaktik tuzilma.
<b>Grammatika</b>	Tilning so'z yasash va gap tuzish qoidalari tizimi.	Fe'l zamonlari: hozirgi, o'tgan, kelasi zamon.
<b>Variativ kategoriyalar (o'zgaruvchan, kontekstga qarab farqlanadigan birliklar)</b>		
<b>Variativ tushunchalar</b>	<b>Mazmun</b>	<b>Izoh</b>
<b>Kognitiv sintaksis</b>	Tilning mantiqiy tuzilishi va fikrni ifodalashda uning roli, insonning til orqali dunyoni qabul qilish jarayonlarini o'rganadi.	Kognitiv sintaksis, unda gap tuzilmasi orqali tilshunoslikda o'quvchi qanday tushunishiga imkon beradi.
<b>Fonetik</b>	Tilning tovush tarkibi, so'zlarni talaffuz qilish va ularning tovush xususiyatlarini o'rganadi.	Fonetik tahlil so'zning talaffuzi va undovli tovushlarni o'rganadi.
<b>Sintaktik</b>	So'z va gaplar orasidagi grammatik bog'lanishlar va ularning tuzilishini o'rganishdan iborat.	Sintaktik tahlil orqali "U maktabga bordi" kabi to'g'ri gaplar tuziladi.
<b>Morfologik</b>	So'zlarning tuzilishi va ularning qismlarini, masalan, ildiz, qo'shimchalar va shakl o'zgarishlarini o'rganadi.	Morfologik tahlil orqali "kitoblar" so'zi "kitob" ildizi va "-lar" ko'plik qo'shimchasidan iborat bo'ladi.
<b>Frazialogik</b>	Bu termin frazalarni va ularning ma'nolarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.	Frazialogik tahlil orqali "Yuzdan ko'ra ko'proq bilim" kabi mantiqiy tuzilma.
<b>Izoh:</b>		
<b>Invariant kategoriya:</b> bu tushunchalar tilning asosiy, qat'iy va o'zgarmas qismlarini tashkil etadi. Ular doimiy shaklda va mustahkam me'yorda ishlatiladi.		
<b>Variativ kategoriya:</b> bu til birliklari kontekstga, vaziyatga yoki hududiy sharoitga qarab o'zgaradi. Unda til boyligi va uslubiy ifoda imkoniyatlari namoyon bo'ladi.		

Boshlang'ich ta'lim jarayonda ona tili fanining o'rni beqiyos bo'lib, u o'quvchilarning nafaqat nutqiy malakalarini, balki tafakkur, mulohaza yuritish, tahlil qilish va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini ham shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda didaktik, tarbiyaviy, psixologik, gigiyenik talablar mavjud

bo'lib, ular o'quvchilarni aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish va tabiiy jarayonlar uyg'unligini ta'minlaydi. Bu esa boshlang'ich sinf ona tili fani mazmunini belgilashda kompetensiyaviy yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqishni hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - "Bilim - Ko'nikma - Malaka"ni oltita birlik (sikstet) - "Bilim - Ko'nikma - Amaliy faoliyat tajribasi - Kompetensiya - Malaka Kompetentlik" tarzida tahlil etishni talab etadi. Shundan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quv elementlarining taksonomik ketma-ketligini ta'minlash hamda individual yondashuv ustivorligini inobatga olish orqali o'quvchilarda invariant (o'zgarmas) va variativ (o'zgaruvchan) tushunchalarni shakllantirishning interiorizatsiya (tushunchaning ichki qabul qilinishi), eksteriorizatsiya (tashqi namoyon bo'lishi) va reflektiv-baholash kabi xususiyatlari aniqlashtirildi (1-rasm).



**1-rasm. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish mazmuni**

Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan invariant va variativ tushunchalarni o'zlashtirish natijalarini belgilashda motivatsion, kognitiv, faoliyatli baholash ko'rsatkichlari asosiy mezonlar sifatida qayd etildi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida invariant va variativ tushunchalarning shakllanganligini belgilash yuqoridagi mezonlar asosida amalga oshirilishi hamda faoliyat natijalari uchta "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli" darajalarda qayd etilishi qoida sifatida belgilab olindi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlar ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularda qiziqishni hosil qiladi. Buning uchun ona tili darslarida o'quvchilarda invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish uchun umumiydan xususiya va xususiyan umumiyga qarab fikrlashni o'rgatish nihoyatda zarur hisoblanadi. Bu esa darslikda keltirilgan o'quv materiallarini induktiv-deduktiv usulda bayon etish zaruriyat sifatida belgilanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning talab va mezonlari bu bilimlarning tizimlashtirilganligidan dalolat beradi. O'quv jarayonida har bir sinfdagi ma'lumotlar takrorlamaydi, lekin biri ikkinchisining uzviy davomi hisoblanadi. Ma'lumotlar bir-birini to'ldirib boradi. Darslikdagi mavzularning berilishi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra tavsiflanishi didaktik talablardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish bilan bog'liqlikda invariant va variativ didaktik funksiyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin (2-jadval).

2-jadval

### **Boshlang'ich ta'limni tashkil etishda invariant va variativ didaktik funksiyalar tahlili**

<b>№</b>	<b>Invariant didaktik funksiyalar</b>	<b>Variativ didaktik funksiyalar</b>
1.	Ta'limda o'zgarishlar atroflicha o'z aksini topmaydi.	Ta'lim sifati va samaradorligiga erishiladi.
2.	O'qituvchining pedagogik mahorati atroflicha rivojlanmaydi.	O'qituvchining o'z ustida ishlashi takomillashtiriladi.
3.	Bugungi kun o'quvchilarining kreativligi susayadi.	O'quvchilarning qiziqishlari (motivatsiya) ortadi.
4.	Axborot manbayiga ehtiyoj sezilmaydi.	O'qituvchi axborot texnologiyalaridan samarali foydalaniladi.
5.	Dars an'anaviy holatda olib boriladi.	Dars jarayoni bahs-munozarali bo'ladi.
6.	An'anaviy usulblardan foydalaniladi.	Multimedia va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi.
7.	O'quvchining individual xususiyati atroflicha o'rganilmaydi.	O'quvchilarning yoshga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.
8.	Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borish jarayoni bir xillikda namayon bo'ladi.	Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borishda turlicha usullarda yondashiladi.
9.	O'quvchilar o'zlashtirishi talab darajasida qamrab olinmaydi.	O'quvchilar o'zlashtirishi yuqori samaraga erishiladi.
10.	Uzluksiz ta'lim jarayonida olib boriladi.	Uzluksiz ta'lim jarayoni uzviyligi va uzluksizligiga ahamiyat beriladi.

Demak, ona tilini o'qitishda invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalari uzviyligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarda ona tilini variativ tushunchalar asosida o'qitish o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Unda o'quvchilarning diqqati, xotirasi, individual tipologik xususiyatlari va fikrlash jarayonining o'ziga xosligini har tomonlama o'rganish, tabiiy va ijtimoiy, atrof-muhit birligi, yaxlitligi tamoyiliga muvofiq holda ona

tili darslarini tashkil etish, o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ehtiyojini qaror toptirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi o'quvchilarning shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirishga, o'qish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan, boshlang'ich sinfda o'qitiladigan fanlarning integratsiyasini ta'minlash, individual o'qish maqsadlari va faoliyat turlarini belgilab beruvchi shaxsiy ta'lim dasturini ishlab chiqish hamda metodik tamoyillarni faol ta'lim strategiyalari bilan uyg'unlashtirish zaruriyatini belgilaydi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari, texnologiyasi hamda uning amaliy jihatlari bayon qilingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun invariant va variativ tushunchalarni anglash dastlab noaniq, sezgi darajasida bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi ushbu bilimlarni ongli, tizimli va bosqichli tarzda etkazishi zarur. Invariant va variativ tushunchalarni o'rgatish orqali o'quvchilarda morfologik tahlil qilish ko'nikmasi, fonetik farqlarni sezish, so'z yasalishi va fe'lning zamonlar orqali o'zgarishini anglash malakalari shakllanadi. Bu esa o'z navbatida tilga chuqurroq kirib borish, grammatik tuzilmani ongli o'zlashtirishga zamin yaratadi.

Ta'limni modernizatsiyalashning asosiy shartlaridan biri bu uning individual, funktsional va samaradorlik xususiyatlarini oshirish hisoblanadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish uchun o'quvchilarning shaxsiy ta'lim dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.


Shaxsiy ta'lim dasturi o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini yuqori darajada amalga oshirish imkonini beruvchi o'quv vositalari va mashg'ulotlar majmuidan iborat. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchining o'quvchi bilan sinf va sinfdan tashqarida olib boriladigan faoliyat shakllariga qaratiladi. O'quvchining shaxsiy ta'lim dasturida keltirilgan o'quv topshiriqlari ikki toifa - bevosita o'qituvchi rahbarligida hamda mustaqil tarzda bajariladigan ish turlariga ajratiladi. Bu esa o'quvchiga kengroq hajmdagi bilimlar majmuini o'zlashtirish imkonini beradi.

Shaxsiy ta'lim dasturini loyihalash va boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim: har qaysi fan o'quv modullari shaklida ifodalanishi mumkin, ularning har biri o'quv faoliyatining tsiklik amalga oshirilishini ifodalaydi, xususan: nazariy materialni o'rganish va amaliy vazifalarni bajarish. O'quv topshiriqlarining soni optimal bo'lishi zarur, o'rganilayotgan fanning mavzulari soniga, shuningdek, ushbu fanni o'rganish yakunida shakllantirilishi lozim bo'lgan minimal kompetensiyalar to'plamiga mos kelishi zarur.

Shaxsiy ta'lim dasturi har bir o'quvchi bilan yakka holda ishlashni nazarda tutmaydi. Bu usul o'quvchilarning har birida mustaqil holda yakka ishlay olish ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq. Bunda o'quvchi o'z individual salohiyati va qobiliyatlariga asoslanib, o'zining ta'lim trayektoriyasini quradi. O'qituvchi esa ta'lim jarayonida “o'zlashtirish xaritalari”ning samaradorligini o'rganadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini kompetent va individual yondashuv asosida tashkil etish bevosita o'qitish metodlarini tanlash tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun invariant va variativ tushunchalarni anglash dastlab noaniq, sezgi darajasida bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi ushbu bilimlarni ongli, tizimli va bosqichli tarzda yetkazishi zarur. Invariant va variativ tushunchalarni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda morfologik tahlil qilish ko‘nikmasi, fonetik farqlarni sezish, so‘z yasalishi va fe‘lning zamonlar orqali o‘zgarishini anglash malakalari shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida tilga chuqurroq kirib borish, grammatik tuzilmani ongli o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda ilk variativ tushunchalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni intellektual-mahsuldor davr hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajalari tekshiriladi.

Quyidagi metodik qoidalar boshlang‘ich sinf ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning ustivor tamoyillari sifatida belgilandi: subyektivlik, ko‘rgazmalilik, interfaollik, kommunikativlik, refleksivlik, individual yondashuv, ilmiylik, introspektsiya tamoyillari (2-rasm).



**2-rasm. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish tamoyillari**

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishda ijodiy yondashuvni takomillashtirish mazmunidagi materiallarni tanlash tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarda ziyraklik, mustaqillik kabi ijtimoiy foydali sifatlarni shakllantiradi.

O‘quvchilarning his-tuyg‘ulari va o‘zlarini o‘rab turgan atrof-olamga nisbatan ongli munosabatlari, asosan ko‘rgazmali xarakterdagi o‘quv materiallari yordamida boyitiladi. O‘quvchilarda ona vatanni asrash uni muhofaza qilishga oid odob-axloq me‘yorlari ham ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning kundalik faoliyatida amal qiladigan asosiy mezonga aylangandagina kompetensiya darajasida shakllana oladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish muayyan maqsadlarga yo‘naltirilgan faoliyat negizida kechadi. Ya‘ni o‘rganilayotgan voqea-hodisalarning muammoli qo‘yilishi kutilgan natijani beradi. Unda tushunarlilik tamoyili keyingi vaqtlarda o‘quv dasturi va darsliklarni yaratishda ham o‘z aksini topmoqda.

Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘qitishda invariant va variativ tushunchalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushuntiruvchi “didaktik transmissiya” uslubi muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik transmissiya - o‘quv

jarayonida yangi bilimlar va tushunchalarni o'quvchining ongiga uzatishning zamonaviy usuli bo'lib, bunda invariant grammatik qoidalar (masalan, ona tilini o'qitishda fe'l va o'zini birlashtirish qoidalari) variativ, ya'ni tilning turli kontekstlarda qanday o'zgarishi mumkinligi bilan tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish jarayonida "pedagogik interfeys" tushunchasi kiritiladi. Bu interfeys, til o'rganishda invariant tushunchalar (masalan, so'z turkumlari, zamon, shaxs) va variativ tushunchalar (masalan, dialektal farqlar, sinonimlar)ni birgalikda o'rgatishga imkon beradi. Pedagogik interfeysning maqsadi - o'quvchilarga turli tillarda o'zgartirishsiz va o'zgarishli strukturalarni samarali talqin qilishni o'rgatishdan iborat.


Metodik nuqtai nazardan qaralganda, bu tushunchalarni o'rgatishda taqqoslash, tahlil qilish, misollar asosida ajratish, tasniflash, transformatsiya kabi usullar keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi bir nechta gapni taqdim etadi: "Men maktabga bordim", "Maktabga men bordim", "Men bordim maktabga" - bu gaplarning barchasida asosiy fe'l invariantdir, lekin sintaktik joylashuvi variativlikni bildiradi. Bu esa sintaktik moslashuv doirasidagi variativlikdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu farqni tushunsa, tilga moslashish, rasmiy va norasmiy uslubni anglash, nutq moslashuvchanligi shakllanadi. Metodik jihatdan esa invariant va variativ shakllarni o'rgatishda vizual vositalar, jadval va sxemalar samarali bo'ladi. Masalan, "o'ynamoq" fe'li uchun quyidagicha jadval tuzish mumkin: markazda invariant - "o'yna", uning atrofida esa "o'ynadi", "o'ynayapti", "o'ynarmidi", "o'ynaguvchilardan" kabi variativ shakllar chiziladi. Bunday tasvir o'quvchiga asos va tarmoqlarni tushunishda, tahliliy tafakkurni shakllantirishda yordam beradi. Bundan tashqari, o'qituvchilar darslarda har bir yangi so'zni o'rganishda uning invariant shaklini alohida ajratib, undan hosil bo'ladigan shakllar orqali variativlikni tushuntirishlari kerak. Shu usul darslarda ko'p martalab takrorlanadigan bo'lsa, bu o'quvchilarda avtomatik reflektor bilimiga aylanadi.

Tanlangan materiallarni amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanib boriladi. Mazkur jarayonda o'quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ya'ni turli tadbirlar, mehnat va umumiy kuzatishlarda o'z aksini topadi. "Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishda materiallarning turli-tumanligi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda mantiqiy izchillikni o'zida aks ettirish, uni takomillashtirish, o'qitish tamoyiliga asoslangan bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'quvchining individual qiziqishi, ta'lim olishi va uni o'zlashtirishiga e'tibor qaratish ma'lum adaptatsiya jarayonini talab etadi. Mazkur jarayonga asoslangan holda, boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga yo'naltirilgan model dasturi keltirildi (3-rasm).

Mazkur modelda boshlang'ich sinf ona tili darslarida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslarini takomillashtirish, didaktik talablar, o'qitishning shakl, metod va vositalari, mazmuni, baholash mezonlari hamda o'quvchi shaxsi, xulq-atvorini kompleks tashxirlash, mustaqil ta'lim olishi va individual rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish jarayoni umumlashtirilgan.



**3-rasm. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish modeli**

Mazkur didaktik model boshlang'ich sinf o'quvchilarida invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishning maqsadi, mazmuni va undan kelib chiqib kutiladigan natijani o'zida aks ettiradi. Model maqsadli, jarayonli va natijaviy bloklardan iborat.

Maqsadli blok - ijtimoiy buyurtma, faoliyat maqsadi va vazifalarini.

Jarayonli blok - o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan invariant va variativ tushunchalarga doir bilim, ko'nikma va malakalar tizimini belgilab beradi. Shuningdek, ushbu blok innovatsion o'qitish texnologiyalari, baholash mezonlari hamda faoliyatni tashkil etishning shakl, metod va vositalarini o'zida ifodalaydi.

*Natijaviy blok* esa o'zida Boshlang'ich sinf ona tili darslarida invariant va variativ tushunchalarga oid ma'lumotlarni o'zlashtirgan, hamkorlikda faoliyat yurita oladigan o'quvchi shaxsini faoliyat natijasi sifatida belgilaydi.

Pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida variativ tushunchalarni shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu lokal-modulli texnologiya quyidagi to'rt bosqichda – maqsadli-motivli, axborotli-mazmunli, faoliyatli hamda reflektiv-baholash bosqichlarida amalga oshirildi. Mazkur jarayonda boshlang'ich ta'lim “Ona tili” darslarida faoliyat samaradorligini ta'minlovchi sintaksis, inversiya, semiotik, lingvotaktik, grammatik ramzlar kabi metodlarning pragmatik xususiyatini oshirishga, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini motivatsion, kognitiv, faoliyatli baholash mezonlari bilan diagnostika qilish imkonini beruvchi didaktik muhitni yaratishga alohida e'tibor qaratildi.

Boshlang'ich sinf uchun ona tili darslarida variativlikni tushuntirish orqali o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqish, noaniq hodisalarni izohlashga bo'lgan ehtiyoj, til hodisalarini tahlil qilishga bo'lgan qobiliyat ortadi. O'quvchilarning nutqida “Shunday deyish ham mumkin”, “Boshqacha aytish mumkinmi?” kabi savollar paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchi mustaqil ravishda lingvistik xulosaga kelayotganini bildiradi. Bu daraja esa boshlang'ich sinf ona tili fanining muhim natijasidir.

Binobarin, boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishga oid dars ishlanmalari metodikasi ishlab chiqildi va ilmiy asosda mazmunan boyitildi. Ishlab chiqilgan dars ishlanmalari o'quv jarayonida ona tilini o'qitishda fanning o'quv dasturidan kelib chiqqan holda izchil yo'lga qo'yildi.

Dissertatsiyaning **“Tajriba-sinov ishlari tahlili va uning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari; pedagogik tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili keltirilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarning qiziqishini orttirishga doir tayyorlangan didaktik va tarqatma materiallar, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari, o'qitish metodlari, vositalari va innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodlardan foydalanib, pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida sinab ko'rish ma'qullandi. Tanlangan materiallarni pedagogik tajriba-sinov jarayonida sinab ko'rish tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, tadqiqot ishimizda boshlang'ich sinf ona tili darslarida ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish, muammosga doir tajriba-sinov natijalarini amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov jarayonida chiqarilgan xulosalar, ilgari surilgan g'oyalar, metodik tavsiyalar, ta'lim

texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan tizimning samaradorligini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida muammoni hal etish yo'llari, tegishli ta'lim mazmuni va hajmi aniqlanib, amalga oshirish usullari ishlab chiqildi va yuqorida ta'kidlanganlarni amalda sinab ko'rish maqsadida 2021-2024 o'quv yillarida tajriba-sinov ishlari asosan Surxondaryo, Buxoro va Sirdaryo viloyatlari umumta'lim maktablarining tanlangan boshlang'ich 2-4-sinflaridan 411 nafar o'quvchi jalb qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:  
 tajriba-sinov ishlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy tayyorgarlik;  
 pedagogik tajriba-sinov ishlarini keng ko'lamda amalga oshirish;  
 pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil etish;  
 olingan natijalar asosida ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

